



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



С/БЕРИЕНИКА



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



HUDUDGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING HOZIRGI HOLATI, INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ, ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОН

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

CURRENT STATE, INSTITUTIONAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE REGION

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

Received: March 3, 2026 Revised: March 6, 2026 Accepted: March 9, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati va xorijiy investitsiyalar oqimining hududlar kesimidagi dinamikasi tahlil qilingan. Jahon iqtisodiy o'zgarishlari fonida mintaqalarning investitsion faolligi, ayniqsa Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida yuqori sur'atlar kuzatilgani qayd etiladi. Namangan viloyati misolida 2010–2024 yillarda xorijiy investitsiyalar ulushining sezilarli o'sishi, modernizatsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi va tarmoqlardagi tarkibiy o'zgarishlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Xorijiy investitsiyalar, mintaqaviy rivojlanish, investitsiya siyosati, modernizatsiya, xalqaro moliya institutlari, innovatsion rivojlanish.

Аннотация: В статье проанализирована инвестиционная политика, проводимая в Узбекистане в последние годы, и динамика притока иностранных инвестиций в разрезе регионов. Отмечается, что на фоне мировых экономических изменений высокие темпы инвестиционной активности регионов, особенно в Бухарской, Навоийской, Кашкадарьинской и Ташкентской областях. На примере Наманганской области изучен значительный рост доли иностранных инвестиций в 2010–2024 годах, экономическая эффективность проектов модернизации и структурные изменения в отраслях.

Ключевые слова: Иностранные инвестиции, региональное развитие, инвестиционная политика, модернизация, международные финансовые институты, инновационное развитие.

Abstract: The article analyzes the investment policy pursued in Uzbekistan in recent years and the dynamics of foreign investment inflows by region. It is noted that against the background of global economic changes, high rates of investment activity in the regions, especially in Bukhara, Navoi, Kashkadarya and Tashkent regions. Using the example of Namangan region, a significant increase in the share of foreign investment in 2010–2024, the economic efficiency of modernization projects and structural changes in industries have been studied.

Keywords: Foreign investments, regional development, investment policy, modernization, international financial institutions, innovative development.

■ KIRISH

Jahon iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga qiyoslanganda O'zbekistonda horijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida erishilgan natijalari ijobiy tendentsiyalarga ega bo'ldi. O'zbekiston, Markaziy Osiyo davlatlari orasida Azarbayjondan keyin horijiy investitsiyalar borasida eng yuqori darajadagi o'sish ko'rsatkichiga ega bo'ldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan beri mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlari faollashib bormoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonga 60 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb etildi. Birgina 2017–2024 yillar oralig'ida O'zbekiston jami 110 mlrd USD dan ortiq

xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan, Shuningdek, 2025-yil oxirigacha jami 42 mlrd USD miqdorida investitsiya jalb etish maqsadi qo'yilgani bildirildi. Bu kammi yoki ko'p? Bu savolga javob berish qiyin, lekin amalga oshirish mumkin va shart bo'lgan imkoniyat mavjudligi ayon.

Xorijiy investitsiyalar har qanday davlatning, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuchdir.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy investitsiyalarni hududiy darajada jalb qilish masalalari bir qancha mamlakatlarda va



O'zbekiston sharoitida keng tadqiq etilgan. Abdullayev (2021) xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hududiy strategiyalarini tahlil qilib, hududiy o'ziga xosliklar va investitsion imtiyozlarni aniqlash zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, sarmoyadorlar uchun barqaror va tushunarli hududiy siyosat muhim omil hisoblanadi [1]. Islomov (2020) esa investitsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy metodlarini ko'rib chiqadi. Muallif hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun innovatsion mexanizmlardan foydalanishni tavsiya qiladi [2]. Bu hududiy sarmoyaviy salohiyatni oshirish strategiyasiga muvofiqdir. Rasulov (2022) xorijiy sarmoyalarni jalb qilishning amaliy tajribasini va istiqbollarini tahlil qiladi. Muallif, ayniqsa, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali viloyatga sarmoya oqimini ko'paytirish mumkinligini ta'kidlaydi [4]. Karimov (2021) hududiy investitsiyalarni jalb qilish omillarini chuqur tahlil qilib, Namangan viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun texnologik va infratuzilma sarmoyalarining muhimligini ko'rsatadi [6]. Sobirov (2020) esa viloyatning sarmoyaviy salohiyatini oshirish yo'llarini amaliy misollar orqali ochib beradi, shuningdek, hududdagi muammolarni aniqlaydi [8].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Namangan viloyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish holatini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi metodlar ishlatildi: Rasmiy statistik ma'lumotlar (Namangan viloyati statistika boshqarmasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, xalqaro hisobotlar) va ilmiy-adabiy manbalar. Deskriptiv tahlil (investitsiyalar hajmi, tarmoqlar bo'yicha taqsimot), taqqoslash (viloyatni boshqa viloyatlar bilan solishtirish), sifatli tahlil (sarmoyadorlar uchun omillar va to'sqinliklar). Tadqiqot 2010–2024 yillardagi investitsiyalarni qamrab oladi va faqat Namangan viloyatiga yo'naltirilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi hamda uning mintaqalari iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning tutgan roli quyidagilar bilan

izohlanadi: birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy, yangi texnika va yuqori texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirsa, ikkinchidan, import o'rmini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi va shu asosda aholining turmush darajasini oshirish imkonini yaratiladi, uchinchidan, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi va, to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy texnik bazasini yangilaydi, texnik jihatdan qayta qurollantiradi, beshinchidan esa tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi.

Umuman olganda, pandemiya (2020) davrida investitsiyalar ko'plab MDH davlatlarida keskin tushgan. Lekin ba'zi davlatlarda, masalan Qozog'istonda 2020-yilda +34,9% ga o'sish qayd etilgan. O'zbekistonda 2022-yilda investitsiya hajmi o'sdi, lekin 2023-yilda ozgina kamaygan, 2024-yilda yana o'sish trendi qayd etilgan. Belarusda ham 2022-23 yillarda ijobiy o'sish mavjud.

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish uchun tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy o'sishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi. SHunga ko'ra, iqtisodiyotni rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni talab qiladi. Respublika mintaqalarida ishlab chiqarish kuchlarini zamonaviylashtirish va asosiy vositalarini yangilash, mavjud sanoat korxonalarini rekonstruksiya qilish uchun yirik kapital qo'yilmalarni safarbar qilish zaruriyati mavjuddir. Shunga ko'ra Respublika mintaqalarida ham xorijiy investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha Respublikamizning asosiy mintaqalarida o'sish ko'rsatkichlari kuzatilmoqda. Lekin xorijiy investitsiyalarni mintaqalarga jalb etishda nomutanosibliklar mavjud.

1-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi (%da)²²

Mintaqalar	2000 y.	2012 y.	2024 y.	2000-2024 yy. o'rtacha
O'zbekiston Respublikasi	23,2	19	69,4	37,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6,6	28,7	70,1	35,1
Andijon viloyati	4,5	7,5	77,9	30,0
Buxoro viloyati	10,5	50,4	82,3	47,7
Jizzax viloyati	28,9	3,1	75,6	35,9
Qashqadaryo viloyati	31,3	23,2	70,7	41,7
Navoiy viloyati	20,3	24	82,1	42,1
Namangan viloyati	2,3	3,2	82,3	29,3
Samarqand viloyati	13,3	3,6	59,6	25,5
Surxondaryo viloyati	4,9	11	62,4	26,1
Sirdaryo viloyati	21,7	2,6	70	31,4
Toshkent viloyati	31,1	16,1	71,3	39,5
Farg'ona viloyati	27,3	11,1	60,9	33,1
Xorazm viloyati	9,5	9,5	59,2	26,1
Toshkent sh.	34,2	19,6	51,7	35,2

²² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Masalan, ko'pchilik viloyatlar 2022 va 2023 yillarda past ulushga ega bo'lgan, lekin 2024 yilda keskin o'sish (masalan, Namangan 2,3 → 82,3%, Andijon 4,5 → 77,9%). Eng yuqori o'rtacha ulushlar: Buxoro (47,7%), Navoiy (42,1%), Qashqadaryo (41,7%), Toshkent viloyati (39,5%). Eng past o'rtacha ulushlar: Samarqand (25,5%), Surxondaryo (26,1%), Xorazm (26,1%), Andijon (30,0%). O'zbekiston Respublikasi

o'rtacha ulushi 37,2%, ko'pchilik viloyatlar undan yuqorida yoki yaqin. Bu mintaqaviy investitsiya jalb qilishdagi farqlarni ko'rsatadi. 2024 yilga kelib chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi sezilarli darajada o'sgan. Ba'zi viloyatlar (Namangan, Buxoro, Navoiy) o'sishda etakchi, boshqalari (Samarqand, Xorazm) esa sekinroq rivojlanmoqda.

2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi²³

Mintaqalar	2000y.	2005y.	2010y.	2015y.	2020y.	2024y.
O'zbekiston Respublikasi	39,1	57,5	52,5	56,2	40,8	23,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	32,7	41	57,3	27,8	39,1	19,2
Andijon viloyati	49,1	59,2	77,8	66,8	47,6	16,3
Buxoro viloyati	45,4	79,2	29,7	51,8	38,3	13,9
Jizzax viloyati	26,8	68,5	70,2	58,4	20,9	17,1
Qashqadaryo viloyati	42,9	76,8	63,7	61	21,6	21,9
Navoiy viloyati	37,6	62,7	41,9	60,8	25,8	14,9
Namangan viloyati	44	50,5	72,1	55,5	41,9	13,7
Samarqand viloyati	60,5	50,3	77,9	73,1	53	28,4
Surxondaryo viloyati	37,7	67,5	56	61,2	23,7	25,3
Sirdaryo viloyati	39,3	49	55,9	41,2	29,9	17,6
Toshkent viloyati	36,5	63,8	52,8	53,6	51,6	21,9
Farg'ona viloyati	40,4	62,4	61,6	63,8	43,3	27,3
Xorazm viloyati	46,5	52,4	63,4	67,5	41,2	31,3
Toshkent sh.	30,2	37,5	41,4	64,4	54	39,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki O'zbekiston bo'yicha umumiy tendensiya, 2000 yilda o'z mablag'larining ulushi 39,1% bo'lgan, 2005–2015 yillarda ko'tarilish kuzatilgan (57,5–56,2%), lekin 2020 va 2024 yillarda keskin kamaygan (40,8% va 23,1%). Bu chet el investitsiyalari va kreditlarining asosiy kapitaldagi ulushining oshganini ko'rsatadi, ya'ni korxona va aholining o'z mablag'lariga bo'lgan qaramlik kamaygan. Viloyatlar bo'yicha eng yuqori ulushlar 2000–2015 yillarda Samarqand (60,5–73,1%), Andijon (49,1–66,8%), Buxoro (45,4–51,8%) viloyatlariga to'g'ri kelgan. Eng past ulushlar 2024 yilda Namangan (13,7%), Buxoro (13,9%), Navoiy (14,9%), Andijon (16,3%) viloyatlari bo'lgan. Toshkent shahrida ulush 2024 yilda 39,3%, bu respublika o'rtacha (23,1%)dan yuqoriroq. O'sish va kamayish tendensiyalari 2000–2015 yillarda aksariyat viloyatlar o'z mablag'lari ulushida o'sish ko'rsatgan. 2015–2024 yillarda aksariyat viloyatlarda keskin pasayish kuzatilgan, bu chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushining oshishi bilan bog'liq.

Tumanlar bo'yicha tahlil qilinganda Pop tumani 2013 yildan boshlab investitsiyalar hajmida keskin o'sishni ko'rsatgan (99,2 mlrd so'mdan 2024 yilda 7 248,2 mlrd so'mgacha). Bu tumanda iqtisodiy faollik ancha kuchayganligini ko'rsatadi. To'raqo'rg'on tumani ham shunga o'xshash tendensiyani ko'rsatadi, 2017 yilda

3 638,4 mlrd so'mga etib, 2024 yilda 3 598,3 mlrd so'mga yaqinlashgan. Namangan tumanida ham investitsiyalar hajmi 2010 yildan boshlab sezilarli o'sishga erishgan: 41,5 mlrd so'mdan 2024 yilda 2 552,6 mlrd so'mga etgan. Kosonsoy tumani ham 2010 yildagi 25,9 mlrd so'mdan 2024 yilda 1 665,2 mlrd so'mga o'sish ko'rsatgan. Uchqo'rg'on tumanida ham sezilarli o'sish mavjud, 2010 yilda 32,3 mlrd so'm bo'lgan investitsiyalar 2024 yilda 1 802,4 mlrd so'mga etgan. Chust tumani investitsiyalar hajmi ham 2010 yildan 2024 yilgacha 51 mlrd dan 4 230,6 mlrd so'mga o'sgan (2.4-jadval).

Kutilmagan yoki qiziqarli holatlar mavjud, Namangan shahri 2010 yilda 315,8 mlrd so'm bo'lgan investitsiyalarni 2024 yilda 24 666,8 mlrd so'mga etkazgan, bu juda katta o'sish darajasini ko'rsatadi. Taqsimlanmagan hajm 2015 yilda ozgina ko'rsatilgan (14,2 mlrd), keyinchalik 0 ga teng bo'lib qolgan. Bu investitsiyalarning aniq tumanlarga taqsimlanishini anglatadi.

Yillik o'sish ko'rsatgichi bo'yicha investitsiyalar hajmi har yili ko'payib bormoqda, ayniqsa 2017 yildan boshlab o'sish juda tezlashgan. 2020 yildan keyin (pandemiya davri) investitsiyalar kamaymay, aksincha oshgan.

²³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (yillik) (hajm, mlrd.so'm)²⁴

Mintaqalar	2010	2013	2015	2017	2020	2023	2024
Namangan viloyati	660,6	1 205,1	2 227,5	3 586,7	12 007,2	19 220,1	54 231,4
Mingbuloq tumani	18,3	38,8	46,7	139,9	295,6	473,1	1 123,9
Kosonsoy tumani	25,9	68,2	88,9	209,3	564,4	719,7	1 665,2
Namangan tumani	41,5	109,6	159,3	292,6	1 075,1	1 481,4	2 552,6
Norin tumani	18,7	68,2	83,4	100,8	383,9	451,1	1 385,5
Pop tumani	30,0	99,2	790,7	534,4	788,3	1 675,9	7 248,2
To'raqo'rg'on tumani	29,7	90,2	104,4	629,5	1 203,8	1 984,8	3 598,3
Uychi tumani	30,7	89,7	99,7	126,0	546,6	798,3	1 902,3
Uchqo'rg'on tumani	32,3	52,8	99,9	227,3	782,0	696,9	1 802,4
Chortoq tumani	24,2	62,8	79,4	124,3	388,3	1 357,6	1 995,1
Chust tumani	51,0	68,1	97,8	142,2	1 042,8	2 181,3	4 230,6
Yangiqo'rg'on tumani	42,5	66,1	91,4	120,2	496,3	724,0	2 060,5
Namangan	315,8	391,4	471,7	931,5	4 440,0	6 676,0	24 666,8
Taqsimlanmagan hajm	0,0	0,0	14,2	8,7	0,0	0,0	0,0

Namangan viloyatida investitsiyalar hajmi so'nggi o'n yillikda sezilarli o'sish ko'rsatgan, bu viloyat iqtisodiyotining rivojlanishi va yangi loyihalarining amalga oshirilishini bildiradi. Pop, Mingbuloq, Chortoq tumani va Namangan shahri investitsiyalarning asosiy markazlari bo'lib qolmoqda. Bu o'sish viloyatning turli tumanlarida ham keng tarqalgan va iqtisodiy faollikning oshishini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyatining tumanlari kesimidagi tahlilning 2024 yil uchun asosiy tendensiyalariga quyidagicha bo'lmoqda. Xorijiy sarmoyaning eng yuqori ulushi viloyat markaziga va Pop tumaniga to'g'ri kelmoqda. Yangiqo'rg'on tumanida ham xorijiy sarmoya yuqori, lekin mahalliy faollik ham mavjud. Kosonsoy tumanida nisbatan muvozanatli, lekin tashqi sarmoya asosiy manba bo'lib turibdi. Narin tumanida ham xorijiy investitsiyalar muhim o'rin tutadi. Chet el sarmoyasi kuchaygan, lekin ichki manbalar ham saqlanib qolgan tumanlar Mingbuloq, Uychi va Uchqo'rg'on. Chortoq va Chust tumanlarida ayrim yillarda chet el investitsiyasi notekis o'smoqda.

Namangan viloyati investitsiya tarkibi 2010–2024 yillarda tubdan o'zgargan. Asosiy kapitalga kiritilayotgan mablag'lar tobora ko'proq tashqi manbalardan, ayniqsa chet el investitsiyalari hisobidan shakllanmoqda. Xorijiy investitsiyalar ulushi 17 baravarga oshgan (4,7% → 82,3%). Bu viloyatda sanoat zonalari, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalarining rivojlanishi bilan bog'liq. Mahalliy korxona va aholi sarmoyasi qisqargan, bu esa ichki investitsion imkoniyatlar cheklanganini yoki tashqi kapitalning ustuvorligini ko'rsatadi. Hududiy tafvut mavjud. Eng katta xorijiy investitsiya ulushi Namangan shahri va Pop tumanida, eng past ulush esa Mingbuloq va Chortoq tumanlarida kuzatiladi. Umuman olganda Namangan viloyati iqtisodiyotida xorijiy kapitalning roli

keskin ortib, ichki mablag'lar ulushi kamaymoqda. Bu holat iqtisodiy o'sishni tezlashtirsa-da, tashqi moliyaviy manbalarga qaramlik xavfini ham keltirib chiqaradi.

Milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvi kuchayib borayotgan davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bu jarayonlar natijasida har bir mamlakatda hamda uning mintaqalarida iqtisodiyotini modernizatsiyalashuvini talab etadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashni esa xorijiy investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. "Biz har bir kelayotgan investor manfaatini kafolatlaymiz" – Prezident Mirziyoyev 2025-yil 10-iyun kuni bo'lib o'tgan Toshkent Xalqaro Investitsiya Forumida shunday ta'kidladi: "Bizning qonunlarimiz bor, qabul qilingan qarorlar mustahkam, va barcha so'nggi sa'y-harakatlarimiz shuni ko'rsatadiki, biz har bir investorga manfaatli hamkorlikni ta'minlaymiz." Darhaqiqat, Namangan viloyatida bugungi kunda mintaqqa iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik yangilash, transport-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda esa zamonaviy texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish va ular assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarish apparatini yangilash va unga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, YaHMda ilmfan sig'imli va sanoat mahsulotlari ulushini ko'paytirish, ishlab chiqarishda davlat sektorini qisqartirish va qulay investitsion muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



O'zbekistonda 2022-2026 yillarda modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan muhim loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar, ikki tomonlama shartnomalar va etakchi xorijiy kompaniyalarning umumiy miqdori 13,99 milliard USD qiymatdagi 154 ta investitsiya loyihasi belgilangan. Bu loyiha portfeli ichida aeroportlarni modernizatsiyalash, to'lovli yo'l qurilishi, yangi issiqlik va elektr stansiyalari barpo etish kabi infratuzilma loyihalari mavjud. Misol uchun: aeroportlarni modernizatsiyalash dasturi (3,8 milliard USD) Toshkent – Andijon to'lovli yo'li (2,83 milliard USD) va Toshkent – Samarqand yo'li (1,4 milliard USD) kabi loyiha qiymatlari ham ko'rsatilgan. Energetika, suv va qishloq xo'jaligi infratuzilmasidagi texnik-texnologik modernizatsiya loyihalari. Energetika yo'nalishida: 2025 yil ma'lumotiga ko'ra, elektr tarmoqlari, podstantsiyalar hamda yuqori voltli uzatish yo'nalishida (\$424,8 million) investitsiyalar amalga oshirilgan. Qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi yo'nalishida: 2025 yil iyunida European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) tomonidan 250 million USD mablag' ajratilib, 110 ta nasos stansiyasini modernizatsiyalash va quyosh panellarini o'rnatish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2024 yilda Asian Infrastructure Investment Bank (AIIB) tomonidan Toshkent viloyatida sug'orish infratuzilmasini modernizatsiyalashga tayyorgarlik grant loyihasi ma'qullangan (2,8 million USD) 100 ming gektar maydon uchun smart sug'orish tizimlari joriy etilishi rejalashtirilgan.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Namangan viloyatida aniq maqsadli ish olib borish natijasida mintaqaga nafaqat xorijiy investitsiyalarni, balki eng avvalo, ilg'or texnologiya va nou-xaularni jalb etishni ko'zda tutilmoqda. Bu mintaqada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Aytish kerakki, mintaqada xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan keng istiqbollari va imkoniyatlar hamda aniq bayon etilgan taraqqiyot ustuvorliklari etakchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalarning o'z investitsiyalarini olib kirishiga yuqori darajada intilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga mintaqaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq deb topdik:

riskli texnologik o'zgarishlarni amalga oshirayotgan va innovatsion faoliyatni tashkil etayotgan korxonalarni soliqqa tortishning past darajasini belgilash va soliq ta'tillarini berish orqali rivojlantirish;

yuqori riskli loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlarining maxsus tizimini yaratish;

ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarning bir qismini tez qoplaydigan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan kichik biznes ob'ektlariga yo'naltirish;

texnologik asbob-uskunalarini zamon talablariga keltirish maqsadida xo'jalik sub'ektlari vakillarining

xalqaro ko'rgazma-savdolarida ishtirok etishini ta'minlash, tejamkor texnologiyalarni tanlash va ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuchdir. Shuning uchun ham barcha imkoniyatlarni ishga solib mintaqalar iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish zamon talabidir. Investitsiya faoliyatida asosiy e'tiborni rivojlanish darajasi past bo'lgan mintaqalarga qaratish maqsadga muvofiqdir. Aynan maqsadli yo'naltirilgan investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich – University of Business and Science “Moliya” kafedrasini mudiri, PhD, Dotsent / Кенжаев Икром Эргашбоевич – заведующий кафедрой «Финансы» Университета бизнеса и науки, PhD, Доцент / Kenjayev Ikrom Ergashboyevich - Head of the Department of Finance at the University of Business and Science, PhD, Associate Professor.

E-mail: ikromk@mail.ru

ORCID: 0009-0007-3775-039X

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. Abdullayev, S. I. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hududiy strategiyalari / S. I. Abdullayev // Moliyaviy va iqtisodiy tadqiqotlar. – 2021. – №3. – B. 45–52.
- [2]. Islomov, R. R. Investitsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy metodlari / R. R. Islomov // Iqtisodiyot va innovatsiya. – 2020. – №4. – B. 12–19.
- [3]. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Hududiy investitsiya ko'rsatkichlari. – Namangan: Statistika boshqarmasi, 2023. – 58 b.
- [4]. Rasulov, T. T. Xorijiy sarmoyalarni jalb qilish: tajriba va istiqbollari / T. T. Rasulov // Moliyaviy menejment. – 2022. – №2. – B. 33–41.
- [5]. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. Foreign Direct Investment in Regions of Uzbekistan. – Tashkent, 2023. – 62 p.
- [6]. Karimov, A. A. Hududiy investitsiyalarni jalb qilishda omillar tahlili / A. A. Karimov // Iqtisodiyot va boshqaruv. – 2021. – №1. – B. 27–35.
- [7]. World Bank. Uzbekistan Economic Update: Investment Climate Assessment. – Washington, D.C., 2022. – 78 p.
- [8]. Sobirov, M. M. Namangan viloyatida sarmoyaviy salohiyatni oshirish yo'llari / M. M. Sobirov // Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar. – 2020. – №5. – B. 54–61.
- [9]. Asian Development Bank. Uzbekistan: Regional Investment Trends. – Manila, 2021. – 65 p.
- [10]. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha yillik hisobot. – Tashkent, 2023. – 72 b.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz